



SHARTNOMAVIY MAJBURIYATLARNI BAJARMAGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Aliyev Axmadjon Azimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Mediatsiya va nizolarni muqobil hal qilish usullari yo'nalishi talabasi

ahmadjonaliyeva@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur tezis fuqarolik-huquqiy javobgarlik, xususan, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik instituti huquqiy tahlil qilinadi. Fuqarolik huquqida javobgarlik instituti yuridik javobgarlikning mustaqil turi sifatida alohida o'rin egallashi ta'kidlanadi. Shartnomaviy majburiyatlarni lozim darajada bajarmaslik huquqiy oqibatlarga olib keladi, bu esa fuqarolik-huquqiy javobgarlikning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Tezisdan yetuk olimlarning javobgarlikka oid qarashlari sharhlanib, javobgarlikni huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan sanksiya sifatida talqin qilish masalasi yoritiladi. Shuningdek, fuqarolik-huquqiy javobgarlikning asosiy shakllari - zarar, neustoyka, shartnomani bekor qilish kabilar keng muhokama etiladi.

Ishda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi qoidalari asosida qarzdorning aybi va majburiyatni bajarmaslik holatlari tahlil qilinadi, shuningdek, Qozog'iston, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar qonunchiligidagi fuqarolik-huquqiy javobgarlikka oid normalar bilan solishtirma yondashuv ham qo'llaniladi. Natijada, mazkur institutning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, shartnomaviy intizom va huquqiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Huquqiy munosabatlarda shartnoma — taraflar o'rtasida huquq va majburiyatlarni vujudga keltiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri bo'lgan shartnoma instituti iqtisodiy barqarorlikni, ishonchlikni va huquqiy muhofazani ta'minlaydi. Shartnomaviy majburiyatlarni bajarish har ikki tomon uchun huquqiy jihatdan majburiydir. Ushbu majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik esa huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur tezisdan shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgarlik tushunchasi, uning shakllari, asoslari va huquqiy oqibatlari tahlil qilinadi.



Fuqarolik huquqida javobgarlik instituti alohida ahamiyat kasb etadi va ushbu institutni markaziy deb e'tirof etish o'rinlidir. Shu bilan birga, mazkur institut huquqshunoslar o'rtasida turlicha talqin qilinadi va ilmiy adabiyotlarda muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Olimlar fuqarolik-huquqiy javobgarlik mohiyati borasida turli nuqtai nazarlarni ilgari surishadi. Masalan, O.S. Ioffe javobgarlikni huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan sanksiya sifatida tavsiflaydi. Biroq u sanksiya tushunchasi har doim ham javobgarlik bilan tenglashtirilmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

O.S.Ioffe javobgarlik huquqbuzarlik uchun shunchaki sanksiya emas, balki shaxsiy va mulkiy xarakterdagi ma'lum mahrum bo'lishlarni keltirib chiqaradigan sanksiyadir, deb ta'kidlaydi ¹.

Shuningdek, Zokirov I.B fikricha fuqarolik-huquqiy javobgarlik sub'ektiv fuqarolik huquqidan mahrum qilish yoki yangi yoki qo'shimcha fuqarolik-huquqiy majburiyatini yuklash ko'rinishidagi huquqbuzar uchun salbiy oqibat keltirib chiqaruvchi huquqbuzarlik uchun sanktsiyadir. Fuqarolik-huquqiy javobgarlik, qonun yoki shartnomada belgilangan sanktsiya ekanligi bir qancha o'zbek olimlari tomonidan ham ta'kidlangan².

Oldingi olimlarning fikrlariga asoslanib, fuqarolik huquqiy javobgarlik yuridik javobgarlikning alohida mustaqil turi ekanligi va qarzdor shaxsga nisbatan qo'llaniladigan sanksiya ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Shu bilan birga, sanksiyaning qanday shaklda bo'lishi lozimligi masalasida olimlar orasida turli qarashlar mavjud. Fuqarolik huquqiy javobgarlikning an'anaviy ko'rinishi sifatida qarzdorni qo'shimcha moliyaviy xarajatlar yoki yangi majburiyatlarni bajarishga majbur qilish ko'riladi.

Shartnomaviy javobgarlik bir nechta huquqiy shakllarda namoyon bo'ladi:

Zararning o'rnini qoplash

¹ Иоффе О.С. Избранные труды по гражданскому праву. – М.: Статут, 2000. – 782 с.

² Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Universitetlarning yuridik fakultetlari, yuridik institute va huquq asoslari o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. I qism. / Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov. – 4-nashr. Qayta ishlangan va to'ldirilgan. – T.: TDYI nashriyoti, 2006. –301-bet. Fuqarolik huquqi: [O'quv qo'llanma]. Umumiy qism / Ruziyev R.Dj., Topildiyev V.R.; mas'ul muharrir B.B.Samarxo'jayev. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 400-bet.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

Zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo'lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo'qolishi yoki shikastlanishi (haqiqiy zarar), shuningdek bu shaxs o'z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo'lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari (boy berilgan foyda) tushuniladi.

Neustoyka jarima yoki penya shaklida bo'ladi.

Qarzdor majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan hollarda to'laydigan va qoida tariqasida, qat'iy pul summasida hisoblanadigan neustoyka jarima hisoblanadi.

Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka penya hisoblanadi.

Shartnomani bekor qilish

Agar taraflardan biri majburiyatni jiddiy ravishda buzsa, boshqa taraf shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bu holat Fuqarolik kodeksining 382-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- 1) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;
- 2) ushbu Kodeks, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o'zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo'l qo'yilsa, shartnoma tegishlicha bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

Fikrimizcha, qarzdorni o'z majburiyatini bajarishga sudning qarori asosida majburlashni fuqarolik-huquqiy javobgarlikning bir shakli deyish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki sud qarori chiqmasdan avval ham qarzdor shartnoma yoki qonun asosida unda vujudga kelgan majburiyatini bajarishi shart bo'lgan. Bunday vaziyatda esa sudning qarori qarzdorda allaqachon mavjud bo'lgan uning burchini ijro etishga majburiy choralarni ko'rish uchun ahamiyatli hisoblanadi.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik shakllariga nisbatan kontinental Yevropa mamlakatlarining huquqi boshqacha yondashadi. Masalan, Frantsiya, Germaniya, Shvetsariya kabi davlatlarning qonunchiligi shartnoma bo'yicha majburiyat buzilganda kreditorga avvalo, qarzdordan majburiyatni natura holda bajarishni talab qilish huquqini beradi³. Demak, ushbu davlatlarning qonunchiligida qarzdorning javobgariligi nafaqat unga qo'shimcha yoki yangi mulkiy majburiyat yuklashda, balki shartnoma bo'yicha majburiyatini natura holda bajarishda ham nomoyon bo'ladi.

Anglo-sakson huquq tizimida majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlik bo'yicha qoidalar kontinental huquq tizimida belgilangan qoidalardan farq qiladi. Unga ko'ra kreditor o'zining buzilgan huquqlarini ko'rgan zararini qoplash orqali tiklashi mumkin.

Qarzdor taraf majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun aybi bo'lgan aqdirda javob berishi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasi 1 qismida keltirilgan. Biroq, agar qarzdor majburiyatni lozim darajada bajarish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni amalga oshirganligi isbotlansa u aybsiz deb topiladi. Bu kabi norma qo'shni Qozog'iston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 359-moddasi 1 bandida belgilangan. Qozog'iston Fuqarolik kodeksi jinoyat huquqidan olingan va faqatgina (исключительно) psixologik mezonlarga (qasd va ehtiyotsizlik) qaratilgan asoslangan (ориентированный) ayb tushunchasidan voz kechib, unga qarzdor xatti-harakatining ob'ektiv kategoriyasini kiritdi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 333-moddasi 1-qismiga muvofiq ham qarzdorni javbogar deb topish uchun u o'z majburiyatini qasddan yoki ehtiyotsizligi sababli bajarmaganligi emas, balki u o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rganligini aniqlash kerak hisoblanadi.

Fuqarolik kodeksining 324-moddasiga binoan, Qarzdor majburiyatni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi tufayli kreditorga yetkazilgan

³ SchulzeReiner, ZollFryderyk (ed.): The law of obligations in Europe. – Munchen: SellierEuropeanlaw, 2013, pages 204, 367.

⁴ Комментарий к Гражданскому кодексу Республики Казахстан (Общая часть). Отв. ред.: Сулейманов М.К., Басин Ю.Г. // URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1019750#pos=4087;-56.



zararni to'lashi shart⁵. Shartnoma munosabatlarida ham sababiy bog'lanish masalasi muhim ahamiyatga ega. Agar qarzdorning majburiyatni buzishi va zararining yuzaga kelishi o'rtasida sababiy bog'lanish aniqlansa, sud zararlarni qoplash to'g'risida qaror chiqaradi. Shu bilan birga, qonun yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan taqdirda, zararni aniqlashda majburiyat bajarilishi lozim bo'lgan joyda yoki da'vo qo'zg'atilgan kunda mavjud bo'lgan narxlar hisobga olinadi.

Shuningdek, agar qarzdor majburiyatni bajarmaslik yoki kechiktirish oqibatida kreditorga yetkazilgan zarar miqdori oshgan bo'lsa, sud zararni kamaytirish yoki oshirishda tomonlarning aybi va majburiyatni bajarish imkoniyatlarini hisobga oladi. Kreditorga yetkazilgan zarar qonuniy himoya qilinadigan manfaatlarni himoya qilish jarayonida yuzaga kelgan bo'lsa, bunday zarar qonuniy hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иоффе О.С. Избранные труды по гражданскому праву. – М.: Статут, 2000. – 782 с.
2. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Universitetlarning yuridik fakultetlari, yuridik institute va huquq asoslari o'qitiladigan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. I qism. / Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov. – 4-nashr. Qayta ishlangan va to'ldirilgan. – T.: TDYI nashriyoti, 2006. -301-bet. Fuqarolik huquqi: [O'quv qo'llanma]. Umumiy qism / Ruziyev R.Dj., Topildiyev V.R.; mas'ul muharrir B.B.Samarxo'jayev. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. – 400-bet.
3. SchulzeReiner, ZollFryderyk (ed.): The law of obligations in Europe. – Munchen: SellierEuropeanlaw, 2013, pages 204, 367.
4. Комментарий к Гражданскому кодексу Республики Казахстан (Общая часть). Отв. ред.: Сулейманов М.К., Басин Ю.Г. // URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=1019750#pos=4087;-56.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 324-moddasi